

**SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “BODOM QISHDA GULLADI”
HIKOYASIDAGI INSONLAR XARAKTERI**

Ro‘ziboy Tangirov,
*Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti tadqiqotchisi*

***Annotatsiya.** Shukur Xolmirzayev Badiiy adabiyot ramzlar asosida hayot voqeligini talqin etar ekan, uning har xil xususiyatlari shaxs xarakterining uzviyligida namoyon bo‘ladi. Insonning harakat etadigan har bir makoni va zamoni mavjud bo‘lgani kabi uning o‘ziga xos xislatlarini ham shakllanishiga bevosita ta’sirini o‘tkazadi. O‘zbek adabiyotining yetuk vakili Shukur Xolmirzayev ijodida ramzlarning badiiy ifodasidir.*

***Kalit so‘zlar:** poetik talqin, mahorat, badiiylik, ramziylik, xarakter, ijodkorlik .*

***Annotation.** Shukur Kholmirezayev As fiction interprets the reality of life on the basis of symbols, its various features are manifested in the integrity of the individual’s character. Every space and time in which a person moves has a direct effect on the formation of his unique qualities. A mature representative of Uzbek literature, Shukur Kholmirezayev, is an artistic expression of symbols in his work*

***Аннотация.** Шукур Холмирзаев Поскольку художественная литература интерпретирует действительность жизни на основе символов, ее различные особенности проявляются в целостности характера личности. Каждое пространство и время, в котором движется человек, оказывает непосредственное влияние на формирование его уникальных качеств. Зрелый представитель узбекской литературы Шукур Холмирзаев является художественным выражением символов в своем творчестве.*

Buyuk yozuvchi asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy adabiyotning asosida xarakterlar yaratish san’ati bilan bir qatorda, ramzlar asosida hayot voqeligini kashf etish an’anasi etakchilik qilib kelgan. Adabiyotning zamirida ijodkor fantaziyasi mavjud ekan, uning asosida hayot va inson mujassamlashadi. Hayot voqeligini badiiy aks ettirish an’anasining o‘ziga xosligi ijodkorning individual uslubini, poetik mahoratini yaxlit holda namoyon etadi.

Adib o‘zbek nasrining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shish bilan birgalikda, ijodkorlikni, so‘zning qudratini, mo‘jizakorligini haqqoniy va poetik obrazlarda namoyon etgan so‘z sanatkorlaridan biridir. Yozuvchining ilk hikoyasidan tortib, epik plandagi romanlarida ham, hayotiy voqelikni, uning turfa xil olamini badiiy kashf etishga intilib yashagan ijodkordir.

Shukur Xolmirzayevdagi so‘zning mohiyatini anglashga bo‘lgan intilish, uning qudratini badiiy matnga singdirish jarayonlari, ijodkordan juda katta mahoratni talab etardi. Yozuvchi hech kimga o‘xshamagan betakror xarakter egasi bo‘lishi bilan birgalikda, ijodda va hayotda ham ana shu xususiyati bilan ajralib turadi. Adibning uzoq yillik mehnati mahsuli bo‘lgan bir qator asarlari, hikoya, qissa, esse va

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

romanlari o‘zi tiriklik davrida to‘lasincha nashr etilgan emas, sanoqli asarlarigina nashr etilgan edi.

Shukur Xolmirzayev hayotda qanday murakkab shaxs sifatida umr kechirgan bo‘lsa, ijodda ham shunday adolatni, haqiqatni, haqiqiy san‘at asarlarinigina tan olib yashgan ijodkordir. Adibning shaxs sifatidagi xislatlar, insonga xos fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirganligi bilan alohida e‘tirof etib kelinadi. Hatto ijodkorlikni yaratgan har bir asarini juda ulug‘ ne‘mat, buyuk iste‘dod sifatida qaraganligi ham bejiz emas. Buning asosida shaxs kamolati, ijodiy jarayonni anglash hissi yetakchilik qilishi tabiiy, holdir. Shuning uchun ham Komiljon Matyoqubov bilan “Adib shaxs bo‘lishi kerak” nomli suhbatining bir o‘rnida shunday fikrlarni ilgari surgan edi: “...G‘ururingni paymol etmaysan. Qolaversa, bu o‘tkinchi dunyoda adib degani Shaxs bo‘lib ham qolishi kerak-ku!” [1, 167-bet]. Adib ana shu fikriga hayoti davomida sodiq qolgan inson va ijodkor sifatida e‘zozlanib kelmoqda.

Shukur Xolmirzayevni nafaqat ijodkor, so‘z san‘atining mohiyatini teran anglagan shaxs sifatida e‘tirof etish lozim. Adibning estetik qiymat kasb etuvchi asarlarning tahliliga ana shu xususiyatning teran ifodasini anglash mumkin. Adabiyotshunos, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurovning “Go‘zallikning olmos qirralari” asari haqida adib quyidagi mulohazalarni ilgari suradi: “Hayotning olmos qirralarini badiiy asarda tasvirlash va badiiy asarning o‘z olmos qirralari bo‘lishi haqida fikr yuritgansiz. Badiiy asar qirralarini o‘zingizcha, orginal tarzda izohlaysiz, hatto nomlaysiz (joziba), unga ta‘rif berasiz va shunga mos misollar keltirasiz, shu yo‘l bilan badiiy asarning ichki dunyosiga kirishga, uning yo‘llari-yo‘laklariga aralashishga, u yo‘llarni tushuntiradigan nuqtalarni topishga, ularning qandayligiga qarab yozuvchi mahoratini o‘lchashga, nihoyat, shu prinsipdan kelib chiqib, yozuvchi oldiga talablar qo‘yishga harakat qilasiz” [1, 6-7-betlar].

Shukur Xolmirzayevni anglagan haqiqatlarining zamirida ijod va ijodiy jarayonning mohiyati mujassamlashganligini, bu esa talant egalarigagina xos xislat ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilasiz. Shuning uchun ham, adibning badiiy asarlarida olamni, odamni, hayotni anglashga intilayotgan shaxslar qismati ham o‘z ifodasini topib boradi. Yozuvchining ilk hikoyalaridan bir bo‘lgan “ bodom qishda gulladi” asaridagi o‘ziga xos ramzni, majozni, xarakterlarning asosli badiiy ifodasini kuzatish mumkin.

Hikoyaning ilk satrlaridayoq hikoyachi nutqini ifodasini kuzatamiz, uning qahramon xayollarini, qarashlarini ostun-ustun etuvchi fikrlari ham asarning badiiyligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Asarning yaratilganiga yarim asrdan ortiqroq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, uning tasvirdagi xususiyatlari, qahramon xarakterini yaratishdagi ijodkorning poetik mahorati, bularning barchasi so‘z san‘atining

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

mohiyatini anglashga xizmat qilib kelayotganligini asoslaydi. Hikoyadagi Nosirjonning o‘z olami, Ziganshinning turfa xil xayollari, yozuvchini ko‘rgani kelib turadigan turmush o‘rtig‘i Sadafning barchasini o‘ziga xos xislatlari xarakter xususiyatlari mavjud: “Ziganshin hamxonalarini tanishtirishda davom etdi: bu kishi – tilshunos, institutning ilmiy xodimi; bu kishi – mashhur montyor, ushbu kasalxonaga ikkinchi bor tushushlari: u kishi – Qodir etikdo‘z, ammo zo‘r kitobxon; anovi yigit – buxorolik. Gazli zilzilalarini ko‘rgan, xolalarining uyiga kelganda shu kasalga yo‘liqib, bu erga tushib qolganlar; nargi kishi – militsiya kapitani, yoshliklarida lo‘li qizga oshiq bo‘lgan” [4, 412-bet].

Asar qahramoni Ziganshinni xonadagilarni tanishtirishida ham, o‘ziga xoslik mavjud. Har birini kasbini, uning xislatidan kelib chiqadigan kasbini, anchadan beri tanishib qolgan odamlardek, qadirdonlardek bo‘lib qolganligiga ham urg‘u berib o‘tadi. Kasalxona odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, dardini olishga intilishadi, ya‘ni insoniyligini namoyon etishga harakat etishiga e‘tibor qaratiladi. Ammo ularning har biri o‘zgacha olamning vakili, ularning qarashlari, olamni anglashi ham turlicha, lekin inson va insoniylik tushunchasi ularni birlashtirib turadi.

Yangi kelgan Nosirjon bilan Ziganshinning o‘rtasidagi diologik muloqotlarning asosida ham hayotiylik mujassamlashgan, chunki ular shu erda tanishishdi, buning sababi esa kasallik. Asar qahramonlarining o‘ziga xosliklarini, ularning xarakter qirralarining mahorat bilan ochilganligida anglash mumkin. Hikoyadagi Nosirjon obraziga nazar tashlar ekanmiz, uning ruhiy-ma‘naviy olamidagi o‘zgarishlar, xarakter shakllanishiga asos bo‘lganligini qayd etish mumkin. Uning soddaligi, beg‘uborligi, ammo bolaligida tasodifiy boshidan zarb olishi, natijada esa, yarim yilga yaqin kasalxonada yotishi, xotirasining susayishi, hatto o‘qish va yozishni unitishi, nomigagina maktabga borib kelishi, beshinchi sinfdan butunlay o‘qishdan chetlashishi, barchasi uning olamini anglashga asos bo‘ladi.

Yillar o‘tib kasalxonaga yana tushushi, palatadagilar bilan ilk kuniyoq yaxshigina chiqishishi, ularning ichida yozuvchi deya ko‘rsatilgan shaxs bilan munosabablarini yaxshilanishi zamirida, uning insoniyligi, o‘ziga xos fazilatlarini namoyon etishi, haqqoniylikka asoslangan shaxs qismatidan dolalat beradi. Nosirjondagi ishonuvchanlik, bolalarga xos beg‘uborlikning mavjudligi, xonadoshlarida unga hazil-mutoyifani yuzaga chiqishiga imkon beradi. Palataga kirgan praktikant, bo‘lg‘usi shifokor Xubbijamolning yangi bemorga ijobiy munosabatlari, uni “so‘z bilan davolash”i barchasi taqdiri azalning hukmiddek tassurotni uyg‘otadi. Bu esa Nosirjonning kuchiga kuch qo‘shar, tafakkur qilishga undardi. Shularning mahsuli sifatida yozuvchi deb tanishtirilgan shaxs oldiga keladi va muhabbat nima? – deb savol beradi: “- Uni boshdan kechirmagan odam bilmaydi.

U yurakda sodir bo‘ladi. Nosirboy. Uni ko‘rsatib ham bo‘lmaydi. Jahlingiz chiqqanda, bironi urasiz. Quvonganda – suyasiz... Muhabbat ham shunga o‘xshash narsa. Lekin u nodir his. Boyagi hislar ham, kezi kelganda, unga bo‘ysinadi, ukam. – “Qizil va qorani” qo‘lga oldim. Mana shu kitobni yozgan odam, hayotning asl ma’nosi muhabbatda, deydi” [4, 419-bet].

Asar qahramoni Nosirjonning xarakteridagi o‘zgarishlarning zamirida muhabbat degan tushuncha shakllanib bormoqda edi. Insonni keng ma’nodagi muhabbat boshqaradi, uning xislatlarini ham, ruhiy qiynoqlar iskanjasidagi holatini ham shakllantiradi.

Xullas, iste’dodli adibning “ Bodom qishda gulladi” hikoyasidagi ramziylik, insonni anglash, muhabbatni his etish, xayolni jamlash imkonini berganligiga ishonch ug‘otadi. Nosirjonning “men o‘qiyabman” – degan hayqirig‘i, yana qayta misralarni takrorlashi, o‘qishni yodga tushurishi bilan, yashashning ma’nisini anglash imkonini bergan. Ramziylik zamiridagi inson xarakterining badiiy ifodasida, shaxs fazilatlarini, hayotning murakkab qirralarini his etishga, tasavvur qilishga imkon bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matyoqubov K. Adib shaxs bo‘lib qolishi kerak // Shukur Xolmirzayev bilan suhbat. Qarang: Xolmirzayev Sh. Men adabiyotni qismatim deganman... Adabiy o‘ylar, maqolalar, suhbatlar. To‘plab nashrga tayyorlovchi, ilova va izohlar muallifi Sh.Xolmirzayeva. – Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2022. – 488 bet.
2. Xolmirzayeva Sh. Yozilmagan so‘zboshiga ilova. Qarang: Sh. Xolmirzayev. Tanlangan asarlar. III jildlik. 1-jild. Hikoyalar. – Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2003. – 448 bet.
3. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent, O‘qituvchi, 1980. – 420 bet. Xolmirzayev Sh.. Tanlangan asarlar. III jildlik. 1-jild. Hikoyalar. – Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2003. – 448 bet.